

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI**

**TOSHKENT SHAHRIDA "MMFI" MILLIY TADQIQOT YADRO UNIVERSITETI"
FEDERAL DAVLAT AVTONOM OLIY TA'LIM MUASSASASINING FILIALINI
TASHKIL ETISH VA UNING FAOLIYATINI TASHKILLASHTIRISH TO'G'RISIDA**

Respublika sanoat tarmoqlari uchun malakali muhandis-texnik kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirish, oliv ta'lism sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish maqsadida, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha *Harakatlar strategiyasi* muvofiq:

1. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lism vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, "Rosatom" atom energiyasi bo'yicha davlat korporatsiyasi, "MMFI" milliy tadqiqot yadro universiteti" federal davlat avtonom oliv ta'lism muassasasining (Rossiya Federatsiyasi) Toshkent shahrida "MMFI" milliy tadqiqot yadro universiteti" federal davlat avtonom oliv ta'lism muassasasining filialini (keyingi o'rnlarda "MMFI" MTYAU filiali deb yuritiladi) ta'sis etish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

2. Quyidagilar "MMFI" MTYAU filiali faoliyatining asosiy yo'naliishlari hisoblansin:

yadro energetikasi va issiqlik fizikasining tarmoq ehtiyojlarini qondirish uchun eng muhim ilmiy-texnologik ishlab chiqarish vazifalarini hal etishga qodir bo'lgan yuqori malakali muhandis-texnik kadrlarni xalqaro ta'lism standartlari darajasida tayyorlash;

mutaxassislar va ilmiy kadrlar tayyorlash tizimini ta'lism va ilm-fan uzlusizligi va izchilligi prinsipi, shuningdek, jahon ta'lism hamda ilmiy hamjamiyatiga muvofiq ravishda albatta integratsiyalashtirish asosida rivojlantirish;

yadro fizikasi sohasida fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlar o'tkazish;

muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda modernizatsiya qilishga yo'naltirilgan yangi ta'lism dasturlari va o'qitish shakllarini ishlab chiqish hamda joriy etish; pedagogik salohiyatni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, o'qitishning pedagogik uslublari va texnologiyalarini faol takomillashtirish;

ta'lism va ilmiy-texnik sohalarda xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta'lism muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan uzoq muddatli munosabatlarni rivojlantirish hamda mustahkamlash.

3. Belgilab qo'yilsinki:

"MMFI" MTYAU filiali oliv ta'lism muassasasi — yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan notijorat tashkilot shaklidagi O'zbekiston Respublikasi rezidenti hisoblanadi;

"MMFI" MTYAU filiali "MMFI" milliy tadqiqot yadro universiteti" federal davlat avtonom oliv ta'lism muassasasining (Rossiya Federatsiyasi) (keyingi o'rnlarda — bosh muassasa) alohida bo'linmasi sifatida kadrlarga bo'lgan talabni hisobga olgan holda, bosh muassasa bilan kelishilgan o'qitishning asosiy yo'naliishlari (mutaxassisliklari) bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydi, qayta tayyorlaydi va ularning malakasini oshiradi, shu jumladan ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlaydi;

"MMFI" MTYAU filiali o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi qonun hujjaligiga muvofiq amalga oshiradi;

"MMFI" MTYAU filialida o'qitish O'zbekiston Respublikasi davlat ta'lism standartlarining talablari inobatga olingan holda, bosh muassasa tomonidan tasdiqlangan o'quv rejalarini va dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi;

"MMFI" MTYAU filialining ta'lism faoliyati 2019/2020 o'quv yilidan boshlanadi;

"MMFI" MTYAU filialiga abituriyentlarni qabul qilish va bitiruvchilarni attestatsiyadan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lism vazirligi bilan kelishilgan holda, bosh muassasa tomonidan belgilanadigan talablar, tartib va muddatlarga muvofiq amalga oshiriladi;

"MMFI" MTYAU filiali bitiruvchilariga o'qish tamomlanganidan so'ng bosh muassasaning belgilangan namunadagi diplomi beriladi va bu diplom O'zbekiston Respublikasida oliv ta'lism to'g'risidagi hujjat sifatida tan olinadi.

4. Bosh muassasa:

o‘quv jarayoniga ilg‘or pedagogika va axborot texnologiyalari, ilm-fan va texnikaning eng yangi yutuqlari joriy etilishini;

“MMFI” MTYAU filiali mutaxassislarining malakasi oshirilishini va professor-o‘qituvchilarining qayta tayyorlanishini;

“MMFI” MTYAU filiali kutubxona fondining shakllantirilishi hamda zamonaviy o‘quv, o‘quv-uslubiy va ilmiy-texnik adabiyotlar bilan to‘ldirilishini ta’minlashga ko‘maklashishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5. Quyidagilar:

“MMFI” milliy tadqiqot yadro universiteti” federal davlat avtonom oliy ta’lim muassasasining (Rossiya Federatsiyasi) Toshkent shahridagi filialida mutaxassislarni o‘qitish va tayyorlashning asosiy yo‘nalishlari (mutaxassisliklari) **1-ilovaga** muvofiq;

“MMFI” milliy tadqiqot yadro universiteti” federal davlat avtonom oliy ta’lim muassasasining (Rossiya Federatsiyasi) Toshkent shahridagi filiali Vasiylik kengashining (keyingi o‘rnilda — Vasiylik kengashi) tarkibi **2-ilovaga** muvofiq;

“MMFI” milliy tadqiqot yadro universiteti” federal davlat avtonom oliy ta’lim muassasasining (Rossiya Federatsiyasi) filialini Toshkent shahrida tashkil etish bo‘yicha Tashkiliy komissiya tarkibi **3-ilovaga** muvofiq ma’qullansin.

6. Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani, Ulug‘bek shaharchasi, Xuroson ko‘chasi 1-uyda joylashgan qurilishi tugallanmagan radiokimyoiy kompleks unga tutash hududlari bilan birga beg‘araz foydalanish huquqi asosida keyinchalik joylashtirish uchun “MMFI” MTYAU filialiga berilsin.

7. Tashkiliy komissiya (A.S. Sultanov):

2019-yil 1-iyulga qadar muddatda “MMFI” MTYAU filiali bino va inshootlarining rekonstruksiya qilinishini, shuningdek, “MMFI” MTYAU filiali talabalari va o‘qituvchilari yashashi uchun yotoqxona tayyorlanishini;

2019-yil 31-avgustga qadar muddatda “MMFI” MTYAU filiali joylashtirilishini hamda uning zarur mebel, inventarlar, zamonaviy o‘quv va laboratoriya asbob-uskunalari, kompyuter va boshqa tashkiliy texnika, kutubxona fondi bilan jihozlanishini ta’minlasin.

Oldingi tahrirga qarang.

8. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi hamda Moliya vazirligi bilan birgalikda 2019-yil va keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish davlat dasturlarini shakllantirishda ularga “MMFI” MTYAU filialining bino va inshootlarini tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlariga muvofiq rekonstruksiya qilish, kapital ta’mirlash hamda jihozlash yuzasidan loyihalarning belgilangan tartibda kiritilishini ta’minlasin.

(8-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-iyundagi PF-6010-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 18.06.2020-y., 06/20/6010/0776-son)

9. Belgilab qo‘yilsinki:

Oldingi tahrirga qarang.

a) “MMFI” MTYAU filialiga qabul kvotasi manfaatdor vazirlik va idoralarning kadrlarga bo‘lgan ehtiyoji hisobga olingan holda, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Energetika vazirligi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligi, bosh muassasa bilan kelishilgan holda tayyorlangan, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining asoslantirilgan takliflari bo‘yicha Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tasdiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi boshqa davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari bilan birgalikda malakali kadrlarni tayyorlashga bo‘lgan ehtiyojni har yili tahlil qilib boradi hamda tahlil natijasiga ko‘ra “MMFI” MTYAU filialiga kelgusi o‘quv yillarida ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha talabalarni qabul qilish soni yuzasidan takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritadi;

(9-bandning “a” kichik bandi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-iyundagi PF-6010-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 18.06.2020-y., 06/20/6010/0776-son)

Oldingi tahrirga qarang.

b) Vasiylik kengashining qaroriga muvofiq “MMFI” MTYAU filiali xodimlariga ularning yuqori malakasi, ixtisoslashtirilgan kompyuter komplekslari bilan ishslash ko‘nikmalari uchun “MMFI” MTYAU filiali va O’zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligining budgetdan tashqari mablag‘lari hisobidan shaxsiy ustama belgilanishi mumkin;

(9-bandning “b” kichik bandi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-iyundagi PF-6010-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 18.06.2020-y., 06/20/6010/0776-son)

v) “MMFI” MTYAU filialining davlat grantlari asosida o‘qigan bitiruvchilari respublika ishlab chiqarish-sanoat tarmoqlari tashkilotlarida kamida besh yil ishlab berish sharti bilan ishga taqsimlanadi;

g) “MMFI” MTYAU filialining faoliyati:

Oldingi tahrirga qarang.

“MMFI” MTYAU filialiga davlat grantlari bo‘yicha qabul qilinadigan talabalarni o‘qitish, shuningdek, yadro energetikasi va texnologiyalarini rivojlantirish sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish uchun O’zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligiga O’zbekiston Respublikasi Davlat budgetidan ajratiladigan mablag‘lar;

(9-band “g” kichik bandining ikkinchi xatboshisi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-iyundagi PF-6010-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 18.06.2020-y., 06/20/6010/0776-son)

Vasiylik kengashining qarorlari asosida shakllantiriladigan pul mablag‘lari, yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari hamda maqsadli badallari;

xalqaro moliya institutlarining grantlari;

qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi;

d) “MMFI” MTYAU filialini tashkil etish, uning moddiy-texnika va o‘quv bazasini shakllantirish bo‘yicha tashkiliy-amaliy tadbirlarni moliyalashtirish, shu jumladan ta’mirlash-tiklash ishlarini olib borish, bino va inshootlarni zarur mebel, inventar, zamonaviy o‘quv va laboratoriya asbob-uskunalarini, kompyuter va boshqa tashkiliy texnika bilan ta’minalash O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O’zbekiston Respublikasini rivojlantirish davlat dasturlarini moliyalashtirish jamg‘armasi mablag‘lari va Vasiylik kengashi tomonidan shakllantiriladigan mablag‘lar, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi;

e) bosh muassasadan jalb qilinadigan professor-o‘qituvchilarning xizmat safari xarajatlarini to‘lash:

30 sutkagacha bo‘lgan qisqa muddatli xizmat safarlari bo‘yicha — Rossiya Federatsiyasining qonun hujjatlari bilan oliy ta’lim muassasalari xodimlari uchun nazarda tutilgan normalarga muvofiq;

uzoq muddatli xizmat safarlari bo‘yicha, o‘quv jarayoni ehtiyojlardan kelib chiqqan holda — tuzilgan shartnomalarga muvofiq amalga oshiriladi;

j) “MMFI” MTYAU filialini saqlash uchun budgetdan ajratiladigan mablag‘lar 2019-yildan boshlab O’zbekiston Respublikasi Davlat budgetining “Maorif” uchun xarajatlar parametrlarida nazarda tutiladi.

10. “MMFI” MTYAU filialiga o‘qituvchilik va ilmiy ishlar uchun taklif etiladigan xorijiy professor va o‘qituvchilarning yashash hamda transport xarajatlarini tuziladigan shartnomalar asosida O’zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun belgilangan tariflar bo‘yicha to‘lashga ruxsat etilsin.

Oldingi tahrirga qarang.

11. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bosh muassasa hamda O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligi bilan birgalikda:

(11-bandning bиринчи xатбосиши О‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-iyundagi PF-6010-sonli Farmoni tahririda — Qонун ҳуҷатлари ма’лумотлари милий базаси, 18.06.2020-y., 06/20/6010/0776-son)

bir oy muddatda belgilangan tartibda “MMFI” MTYAU filialining ta’sis hujjatlari ishlab chiqilishi, kelishilishi va davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini;

ikki oy muddatda “MMFI” MTYAU filiali tashkiliy tuzilmasining tasdiqlanishini;

2019-yil 1-avgustga qadar muddatda “MMFI” MTYAU filialining malakali professor-o‘qituvchilar tarkibi bilan tanlov asosida to‘ldirilishini ta’milasini.

12. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi “MMFI” MTYAU filialiga ikkita yengil xizmat avtotransport vositasini, shu jumladan bitta biriktirilgan avtotransport vositasini saqlash uchun limit ajratsin.

13. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda “MMFI” MTYAU filialining buyurtmalariga binoan mazkur qarorni amalga oshirish doirasida jalb qilinadigan xorijiy professor-o‘qituvchilar va ma’muriy xodimlar, shuningdek, ularning oila a’zolari uchun kirish vizalari konsullik hamda boshqa yig‘imlar undirilmasdan belgilangan tartibda rasmiylashtirilishini ta’milasini.

Oldingi tahrirga qarang.

14. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda “MMFI” MTYAU filialining buyurtmalariga binoan xorijiy professor-o‘qituvchilar va ma’muriy xodimlar, shuningdek, ularning oila a’zolariga davlat boji undirilmasdan ko‘p martalik vizalar berilishi va uzaytirilishini hamda ularning O‘zbekiston Respublikasida vaqtinchalik turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olinishini belgilangan tartibda ta’milasini.

(14-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-yanvardagi PF-6146-sonli Farmoni tahririda — Qонун ҳуҷатлари ма’лумотлари милий базаси, 27.01.2021-y., 06/21/6146/0065-son)

15. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda “MMFI” MTYAU filialining buyurtmalariga binoan “MMFI” MTYAU filialini tashkil etishda va uning faoliyatida ishtiroy etuvchi xorijiy malakali mutaxassislarini respublikaga jalb qilishga belgilangan tartibda ruxsatnomalar berishni (uzaytirishni), shuningdek, xorijiy fuqarolarga O‘zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga tasdiqnoma berishni (uzaytirishni) ta’milasini.

16. “MMFI” MTYAU filiali 2021-yil 1-yanvarga qadar muddatda “MMFI” MTYAU filialini jihozlash va uning faoliyatini ta’milash uchun belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro‘yxatlar bo‘yicha olib kiriladigan, O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan o‘quv va ilmiy laboratoriya asbob-uskunalar, kompyuter texnikasi, dasturiy mahsulotlar, o‘quv va ilmiy-uslubiy adabiyotlar, inventar va moddiy-texnika resurslari bojaxona to‘lovlaridan (bojaxona yig‘imlaridan tashqari) ozod etilsin.

17. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda qonun hujjatlari ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartish va qo‘srimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kirlitsin.

18. Mazkur qarorning ijrosini nazarat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari A.A. Abduhakimov va O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari — “O‘zbekneftgaz” AJ boshqaruvi raisi A.S. Sultanov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2018-yil 20-iyul,
PQ-3875-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-iyuldaggi PQ-3875-son qaroriga
1-ILOVA

“MMFI” milliy tadqiqot yadro universiteti” federal davlat avtonom oliy ta’lim muassasasining (Rossiya Federatsiyasi) Toshkent shahridagi filialida mutaxassislarni o‘qitish va tayyorlashning asosiy yo‘nalishlari (mutaxassisliklari)

1. Yadro energetikasi va issiqlik fizikasi
2. Yadro fizikasi va texnologiyasi
3. Atom stansiyalari: loyihalashtirish, foydalanish va injiniring

Izoh: *Vasiylik kengashi tomonidan yo‘nalishlar (mutaxassisliklar) ro‘yxatiga tashkilot-iste’molchilarining kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlari inobatga olinib, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi va “MMFI” milliy tadqiqot yadro universiteti” federal davlat avtonom oliy ta’lim muassasasi bilan kelishilgan holda o‘zgartirishlar yoki qo‘srimchalar kiritilishi mumkin.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-iyuldaggi PQ-3875-son qaroriga
2-ILOVA

“MMFI” milliy tadqiqot yadro universiteti oliy ta’lim federal davlat avtonom ta’lim muassasasining Toshkent shahridagi filiali Vasiylik kengashining

TARKIBI

Oldingi tahrirga qarang.

| | | |
|---------------------|---|--|
| A.N. Aripov | — | O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, <i>Vasiylik kengashi raisi</i> |
| A.S. Sultanov | — | O‘zbekiston Respublikasi energetika vaziri, <i>Vasiylik kengashi raisining o‘rinbosari</i> |
| Sh.A. Vafayev | — | O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining investitsiyalar va tashqi iqtisodiy aloqlar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari |
| B.S. Yuldashev | — | O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti |
| J.T. Mirzamaxmudov | — | O‘zbekiston Respublikasi energetika vazirining birinchi o‘rinbosari — O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligi bosh direktori |
| (kelishuv bo‘yicha) | — | “Rosatom” atom energiyasi bo‘yicha davlat korporatsiyasi vakili |
| I.U. Madjidov | — | O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri |
| A.Y. Xaydarov | — | O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining birinchi o‘rinbosari |
| I.I. Norkulov | — | O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirining birinchi o‘rinbosari |
| B.F. Islomov | — | O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi raisi |
| A.K. Farmanov | — | “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” boshqaruvi raisi |
| K.S. Sanakulov | — | “Navoiy TMK” DK bosh direktori |
| (lavozimi bo‘yicha) | — | “MMFI” milliy tadqiqot yadro universiteti” federal davlat avtonom oliy ta’lim muassasasi filialining ijrochi direktori — direktor o‘rinbosari |

Izoh. Vasiylik kengashi a’zolari boshqa ishga o‘tganda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli vazifalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

(2-ilova O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-iyundagi PF-6010-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 18.06.2020-y., 06/20/6010/0776-son)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-iyuldaggi PQ-3875-son qaroriga
3-ILOVA

“MMFI” milliy tadqiqot yadro universiteti” federal davlat avtonom oliy ta’lim muassasasining filialini Toshkent shahrida tashkil etish bo‘yicha tashkiliy komissiya

TARKIBI

Oldingi tahrirga qarang.

- A.S. Sultanov — O‘zbekiston Respublikasi energetika vaziri, tashkiliy komissiya raisi
J.T. — O‘zbekiston Respublikasi energetika vazirining birinchi o‘rinbosari —
Mirzamaxmudov — O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Atom
energetikasini rivojlantirish agentligi bosh direktori, tashkiliy komissiya
raisining o‘rinbosari
B.S. Yuldashev — O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti
I.U. Madjidov — O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri
D.X. Nabiiev — O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining birinchi
o‘rinbosari
A.Y. Xaydarov — O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining birinchi o‘rinbosari
A.A. — O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirining o‘rinbosari
Abduvaxitov
(kelishuv
bo‘yicha) — “MMFI” milliy tadqiqot yadro universiteti” federal davlat avtonom oliy
ta’lim muassasasining vakili
J.A. — Toshkent shahar hokimi
Artikxodjayev
A.R. Maraximov — O‘zbekiston Milliy universiteti rektori

Izoh. Tashkiliy komissiya a’zolari boshqa ishgaga o‘tganda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangi tayinlangan
yoki zimmasiga tegishli vazifalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

*(3-ilova O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-iyundagi PF-6010-soni Farmoni
tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 18.06.2020-y., 06/20/6010/0776-soni)*

*(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 21.07.2018-y., 07/18/3875/1555-soni; 18.06.2020-y.,
06/20/6010/0776-soni; 27.01.2021-y., 06/21/6146/0065-soni)*